

MAQOLLARDA SONLARNING OTLASHISH HODISASI

Yuldasheva Gulnoz

RANCH universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi o'zbek xalq maqollarida uchraydigan sonlarning otlashish hodisasi tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Sanoq sonlarning nutqda miqdor bildirish vazifasidan tashqari otlarga xos grammatik shakllarni egallashi, ya'ni kelishik va egalik qo'shimchalarini qabul qilishi hamda gapda mustaqil sintaktik vazifalarda kelishi yoritib beriladi. Maqollarda sonlarning otlashuvi orqali umumlashgan, ramziy va mavhum ma'nolar yuzaga kelishi, ularning maqol mazmunini ixcham va ta'sirchan ifodalashdagi roli aniqlanadi. Tahlil natijalari sonlarning o'zbek tili tizimidagi funksional imkoniyatlarini ochib berish bilan birga, xalq og'zaki ijodining lingvistik xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: son, otlashish hodisasi, xalq og'zaki ijodi, ramziy ma'no, umumlashgan ma'no, tilshunoslik, morfologiya.

Аннотация: В данной статье анализируется феномен сочетаний чисел в узбекских народных пословицах с лингвистической точки зрения. Подчеркивается, что, помимо функции выражения количества в речи, исчисляемые числительные приобретают грамматические формы, характерные для существительных, то есть принимают суффиксы склонения и притяжательные суффиксы, и появляются в предложениях в самостоятельных синтаксических функциях. Определяется возникновение обобщенных, символических и абстрактных значений посредством сочетаний чисел в пословицах, их роль в лаконичном и эффективном выражении содержания пословицы. Результаты анализа, наряду с выявлением функциональных возможностей чисел в узбекской языковой системе, способствуют углублению понимания лингвистических особенностей народного фольклора.

Ключевые слова: число, сочетание чисел, народный фольклор, символическое значение, обобщенное значение, лингвистика, морфология.

Abstract: This article analyzes the phenomenon of the number combination in Uzbek folk proverbs from a linguistic point of view. It is highlighted that, in addition to the function of expressing quantity in speech, countable numerals acquire grammatical forms characteristic of nouns, that is, they accept declension and possessive suffixes, and appear in sentences in independent syntactic functions. The emergence of generalized, symbolic and abstract meanings through the number combination in proverbs, their role in concise and effective expression of the content of the proverb, is determined. The results of the analysis, along with revealing the functional possibilities of numbers in the Uzbek language system, serve to deepen the understanding of the linguistic features of folk folklore.

Keywords: number, number combination, folk folklore, symbolic meaning, generalized meaning, linguistics, morphology.

Insonning hayot falsafasi va xalq donishmandligi asrlar davomida maqollarda o'z ifodasini topgan. Xalq og'zaki ijodining bu noyob shakllari nafaqat hayotiy tajriba, balki tilning morfologik va sintaktik xususiyatlarini ham ochib beradi. Ayniqsa, sonlarning otlashish hodisasi maqollarda keng qo'llanilib, ularning mazmunini umumlashtirish, fikrni lo'nda va ta'sirchan ifodalash imkonini beradi.

Maqollarda sonlarning otlashishi ko‘pincha ramziy va falsafiy ma‘no bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali hayotiy qarama-qarshiliklar, sabab–natija munosabatlari hamda ijtimoiy va axloqiy xulosalar ifodalanadi.

Tilshunoslikda sonlar miqdor va tartibni bildiruvchi mustaqil so‘z turkumi sifatida qaraladi. Biroq real nutqda, ayniqsa, xalq maqollarida sonlar o‘zining dastlabki miqdoriy ma‘nosidan chiqib, otlashgan birlik sifatida qo‘llanadi.[1.:229] Bunday holatda sonlar kelishik va egalik qo‘shimchalarini qabul qiladi hamda gapda ega, to‘ldiruvchi yoki hol vazifasida keladi. Masalan, **birni bilgan, yuzga kirgan, mingniki** kabi shakllar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Sonlarning otlashuvi natijasida maqol, gaplar ko‘pincha fe‘lsiz yoki qisqa sintaktik tuzilma asosida shakllanib, chuqur ma‘noni oz so‘z bilan ifodalash imkonini beradi. Maqollarda sonlarning otlashish hodisasi nafaqat grammatik jarayon, balki badiiy-falsafiy vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.[2.:231] Bu hodisa xalq tafakkurining til vositalari orqali qanday umumlashtirilganini ko‘rsatadi hamda sonlarning nutqdagi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yuzga kirsang, yuz yil o‘qi – bu maqolda ”yuz“ sanoq soni ikki xil ko‘rinishda qo‘llangan bo‘lib, faqat bittasi otlashgan. **Yuzga kirsang** qismidagi yuz so‘zi sanoq son bo‘lishiga qaramasdan **-ga** kelishik qo‘shimchasini olgan. Bu yerda **yoshga** so‘zi tushib qolib, uning tarkibidagi grammatik shakl son so‘z turkumiga o‘tgan. Bu holat otlashish xodisasini yuzaga keltirgan.

Ushbu maqolning mazmuni shundaki, inson qanchalik yuksak darajaga yetsa ham ilm olishdan to‘xtamasligi kerak. Bu chuqur ma‘no aynan sonning otlashishi orqali ta’sirchan ifodalangan.

Birni bilgan, birni bilmas – maqolda “**bir**” sanoq soni ikki marta qo‘llangan, har ikkala holatda ham otlashgan son sifatida ishtirok etgan. Bir soni **-ni** kelishigini olib otlashgan va aniq miqdorni emas, balki umumlashgan tushunchani bildirgan. Bu yerda otlashish hodisasi natijasida son fe‘lga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanib, otga xos sintaktik vazifani bajargan. Maqolda otlashgan son to‘ldiruvchi vazifasida kelgan.

Maqolda inson ko‘p narsani bilsa ham boshqa bir muhim narsadan bexabar bo‘lishi mumkinligi ifodalangan. Bu umumlashgan ma‘no sonning otlashishi orqali yuzaga kelgan.

Birni kessang, o‘nni ek – maqolda “**bir**” va “**o‘n**” sonlari otlashgan holda qo‘llangan. Aniq miqdorni emas, balki umumlashgan predmet yoki amal natijasini ifodalash uchun xizmat qilgan. Maqolda otlashgan son **-ni** kelishik shaklini olib, to‘ldiruvchi vazifasida kelgan. Sonlarning otlashishi maqolning badiiy kuchini oshirgan. Miqdorlarning keskin qarama-qarshiligi maqolning mazmuni yanada aniqroq ifodalagan. Ya’ni maqoldagi nasihat ohangini yanada kuchaytirgan.

Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘i – maqolda “**o‘n besh**” soni ikki marta qo‘llanilib, ikki o‘rinda ham sonlar otlashish hodisasida uchragan. Bu yerda otlashgan sonlar ega vazifasida qo‘llangan. Ko‘plik qo‘shimchasini olmagan bo‘lsa-da umumlashgan, mavhum ot sifatida ishlatilgan. “**O‘n besh**” soni aniq miqdorni emas, balki hayotning davriylik va o‘zgaruvchanlik ma‘nosini ifodalagan. Shu orqali son otlashib, hayotning ikki holati umumlashtirib ko‘rsatilgan.

Yetti o‘lchab, bir kes – maqolda “**yetti**” va “**bir**” sonlari otlashgan holatda qo‘llangan. Bu so‘zlardan keyin keladigan “**marta**” so‘zi tushib qolib, mavhumlashgan holda ot vazifasini bajargan. Garchi yuzaki qaraganda sonlar fe’lni aniqlayotgandek tuyulsa-da, mazmun jihatdan ular mustaqil umumlashgan birlik sifatida ishlatilgan. Yetti – ko‘plik, puxtalik, ehtiyotkorlik ramzi, bir esa aniqlik va qat’iylik ramzi bo‘lib, ishni bajarishdan oldin chuqur o‘ylab, qarorni aniq va mas’uliyat bilan qabul qilish lozimligini ifodalovchi maqol hisoblanadi. Bu ramziy ma’no sonlarning otlashuvi natijasida yuzaga kelgan.

O‘zbek xalq maqollari tilning nafaqat badiiy-estetik, balki grammatik va semantik imkoniyatlarini ham yaqqol namoyon etuvchi muhim lingvistik manbadir. Mazkur tezisda maqollarda sonlarning otlashish hodisasi morfologik va semantik jihatdan tahlil qilinib, bu jarayonning xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni va ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sanoq sonlar maqollar tarkibida o‘zining dastlabki miqdoriy vazifasidan chiqib, umumlashgan, mavhum va ramziy ma’nolarni ifodalovchi otlarga aylanadi. Shuningdek, sonlarning otlashish hodisasi maqollarning ixchamligi, lo‘ndaligi va mazmuniy chuqurligini ta’minlovchi muhim uslubiy vosita ekani aniqlandi. Bu hodisa orqali murakkab hayotiy xulosalar qisqa va sodda til birliklari yordamida ifodalanib, maqollarning avloddan-avlodga o‘tib kelishida muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, maqollarda sonlarning otlashish hodisasi o‘zbek tilining funksional boyligini, xalq tafakkurining til vositalari orqali qanday umumlashtirilishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, M. Qurbonova, Z. Yusupova, G. Boqiyeva. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009
2. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “universitet” nashriyoti. Toshkent – 2006